



INGLIZ VA RUS TILLARI TUZILMASINING QIYOSIY TAHLILI:
SINTAKSIS VA SO‘Z TARTIBIGA E‘TIBOR
COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND RUSSIAN
LANGUAGE STRUCTURES: A FOCUS ON SYNTAX AND WORD
ORDER

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СТРУКТУР АНГЛИЙСКОГО И
РУССКОГО ЯЗЫКОВ: АКЦЕНТ НА СИНТАКСИС И ПОРЯДОК
СЛОВ

*Farg‘ona davlat universiteti, rus tili metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi
Xamidova Maxbuba Kaxarovna*

*Farg‘ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni o‘qitish:
ingliz tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Akbaraliyeva Xurshidaxon Foziljon qizi
xurshidaakbaraliyeva2303@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va rus tillarining sintaktik tuzilishlari va so‘z tartibini qiyosiy tahlil qiladi. Ingliz tili analitik til bo‘lgani sababli, qat‘iy SVO (subyekt–fe’l–obyekt) so‘z tartibiga ega, bu esa gapning ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi va tarjimani osonlashtiradi. Rus tili esa sintetik til bo‘lib, so‘z tartibida erkin, bu esa gapning urg‘usini yoki mazmun tuzilmasini ifodalashda qo‘llaniladi. Ushbu maqolada har ikki tilning ham sintaktik xususiyatlari, inversiya va fokus tushunchalari, hamda, so‘z tartibining qat‘iyligi va erkinligi misollar bilan dalillab o‘tiladi. Tadqiqot natijalari til o‘rganish va tarjima jarayonlarida so‘z tartibining ahamiyatliliginini ko‘rsatadi ko‘rsatadi.



Abstract: This article presents a comparative analysis of the syntactic structures and word order in English and Russian. As an analytic language, English follows a strict SVO (subject–verb–object) word order, which plays a crucial role in conveying meaning and facilitates the process of translation. Russian, on the other hand, is a synthetic language that allows for flexible word order, which is often used to express emphasis or information structure. The article examines the syntactic features of both languages, the concepts of inversion and focus, and supports the discussion with examples illustrating both fixed and free word order. The findings highlight the importance of word order in language learning and translation processes.

Аннотация: Данная статья представляет сравнительный анализ синтаксических структур и порядка слов в английском и русском языках. Английский язык, будучи аналитическим, характеризуется жёстким порядком слов SVO (подлежащее – сказуемое – дополнение), который играет важную роль в определении смысла высказывания и облегчает процесс перевода. Русский язык, напротив, является синтетическим и допускает свободный порядок слов, что позволяет выражать акцент и структурное значение высказывания. В статье рассматриваются синтаксические особенности обоих языков, понятия инверсии и фокуса, а также приводятся примеры, иллюстрирующие строгий и свободный порядок слов. Результаты исследования подчёркивают значимость порядка слов в изучении языков и процессе перевода.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili sintaksisi, rus tili sintaksisi, so‘z tartibi qiyosi, analitik va sintetik tillar, inversiya va fokus, qiyosiy tilshunoslik, funksional gap tuzilmasi, til o‘rganish va tarjima.



Keywords: English syntax, Russian syntax, word order comparison, analytic and synthetic languages, inversion and focus, comparative linguistics, functional sentence structure, language learning and translation.

Ключевые слова: синтаксис английского языка, синтаксис русского языка, сравнение порядка слов, аналитические и синтетические языки, инверсия и фокус, сравнительное языкознание, функциональная структура предложения, изучение языков и перевод.

Til-insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri, u orqali insonlar o‘zaro muloqot qiladi, bilim va tajriba almashadi hamda madaniyatni avloddan avlodga o’tkazadi. Har bir til o’zining ichki tuzilishi, gramatikasi hamda leksikasiga ega bo’lib, bu jihat bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Gapdagi so‘zlar tartibi har qanday til sintaksisining asosiy xususiyatlaridan biridir. So‘z tartibi gap bo‘laklari qay holatda tashkil etilishini ko’rsatadi va gapning ma’nosini va ifodaviyligiga katta ta’sir qiladi. Til tuzilishiga ko’ra, so‘zlar tartibi o‘zgarib turadi, bu esa fikrni ifodalashning turli xil usullarini, muhim elementlarga urg‘u berishni hamda uslubiyatni ko’rsatadi. Rus va ingliz tillari — gapdagi so‘zlar tartibidagi har xil yondashuvlar bilan ajralib turadigan tillarga aniq misoldir. Ingliz tili qat’iy so‘z tartibi bilan ajralib turadi, rus tilida esa bu yerda erkinlik mavjud, bu kabi uslub matnning hissiy va uslubiy ifodasi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ingliz tilida so‘z tartibi eng ahamiyatli jabhalaridan biridir, bu boradi ingliz tili qat’iy tuzilma va qolipga ega bo’lib, asosan SVO (Subject+verb+object) ko’rinishida ifodalanadi. Bunda gap boshida subyekt, fe’l hamda obyekt bilan gapni yakunlaydi. Gapda subyekt harakatni kim tomonidan bajarilgani, harakat egasi kim ekaninini aniqlab ega vazifasida keladi, fe’l ushbu harakatni o’zini, ya’ni nima harakat bajarilganini aniqlab keladi, obyekt esa gapga qo’shimcha ma’no berishga xizmat qiladi. Oddiy gaplarda so‘z tartibi qat’iy saqlanadi. Masalan, “She smells flowers” ushbu gapda “She” (U)-harakatning bajaruvchisini, “smells”



(hidlamoq) harakatni, “flowers” (gullarni) esa harakat yo’nalgan obyektni ko’rsatib kelmoqda. Bu kabi gap tuzilmasi asosan flektiv hamda agglyutinativ tillarga xos bo’lib, gapning mantiqiy va tushunarli qiladi, hamda tarjimani osonlashtiradi.

So‘roq shakli esa so‘z tartibini o‘zgartirishni talab qiladi. So‘roq so‘zi yoki yordamchi fe'l gapning boshiga suriladi. Masalan, "Does you she smell flowers?" (U gullarni hidlaydimi?) gapida yordamchi fe'l “does” subyekt “she”dan oldin keladi. Agar gap so‘roq so‘zi bilan boshlangan bo‘lsa, masalan, "What does she smell?" (U nimani hidaydi?), so‘roq so‘zi ham birinchi o‘rinda bo‘ladi, bu esa gapni yanada ma’lumotli va interaktiv qiladi. Inkor gaplarda, “doesn’t,” “don’t” yoki “didn’t” yordamchi fe’llari “not” qo‘srimchasi bilan ishlataladi va ular fe’ldan keyin keladi. Masalan, “She does not smell flowers” (U gullarni hidlamaydi) gapida so‘zlar tartibi saqlanadi, lekin “not” qo‘srimchasi qo‘silishi gapning inkor mazmunini bildiradi. Ushbu qoida inkor tuzilmalarni oson yaratish imkonini beradi, shu bilan birga ifodaning aniq bo‘lishini ta’minkaydi.

Ba’zan ingliz tilida so‘zlar tartibini o‘zgartirish orqali urg‘u yoki uslubiy ta’sir yaratadi. Masalan, “Never have I seen such kind of nature” (Hech qachon bunday tabiatni ko‘rmaganman) gapida inversiya (so‘zlar tartibini o‘zgartirish) bilam gapning hissiyligini kuchaytirimoqda. Bunday tuzilmalar asosan adabiyot va she’riyatda tez-tez uchrab turadi, bu yerda faqat ma’lumot emas, balki uning qanday yetkazilishi ham muhim.

Ingliz tilidagi frazeologizm va iboralar gapda turli joylarga joylashishi mumkin. Ular erkin oldin yoki gap oxirida bkelish xususiyatiga ega. Masalan, “She quickly cries” (U tezda yig’laydi) gapida “quickly” (tezda) predikatdan oldin kelib, harakat tezligini ta’kidlaydi. Boshqa bir variantda, “She eats bananas quickly” (U bananlarni tezda yeydi) frazeologizm gap oxirida keladi va harakatni ta’kidlaydi. Bu turli variantlar yanada ifodali gaplar yaratishga imkon beradi.



Ingliz tilidagi so‘zlar tartibi gaplarnitarjima qilishda va ma’no chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi istisnolar va o‘zgarishlar bo‘lsa-da, SVO tuzilmasining aniqligi tilni to‘g‘ri ishlatishda asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu qoidalarga rioya qilish nafaqat xatolarni oldini olishga yordam beradi, balki nutqni yanada ifodali beradi. So‘zlar tartibini tushunish samarali muloqotning asosi bo‘lib, bu ayniqsa bugungi ko‘p tilli dunyoda juda muhimdir.

Gap tuzilmasi va ma’no yetkazilishida so‘z tartibi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada biz rus tilidagi so‘z tartibining asosiy jihatlari va uning muloqotga ta’sirini ko‘rib chiqamiz. An’anaviy ravishda rus tilida ham subyekt + predikat + obyekt (SVO) so‘z tartibi qo‘llaniladi. Bu tuzilma harakatni kim bajarayotganini, nima sodir bo‘layotganini va bu harakat nimaga qaratilganini aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Masalan, “Кошка ловит мышь” (Mushuk sichqonni tutyapti) gapida “Кошка” — harakatni bajarayotgan subyektni, “ловит” — harakatni o‘zini, va “мышь” — ushbu harakat yo‘naltirilgan obyektni bildiradi.

So‘roq gaplar odatdagi tartibda bo‘lishi mumkin, ammo ko‘pincha so‘zlar tartibi o‘zgaradi va bu savol ifodasi uchun xizmat qiladi. Masalan, “Кто ловит мышь?” (Kim sichqonni tutyapti?) gapida tuzilma o‘zgarmaydi, lekin urg‘u subyektga beriladi. Shuningdek, so‘z tartibini o‘zgartirib savolni boshqacha urg‘u bilan ifodalash mumkin: “Что ловит кошка?” (Mushuk nimani tutyapti?) bu yerda esa urg‘u harakat obyektiga beriladi, bu esa intonatsiya va ma’noni o‘zgartirishi mumkin.

Rus tilidagi inkor gaplar “не” qo‘srimchasi yordamida tuziladi. Bu odatda fe’lning yoki rad etilayotgan so‘zning oldida joylashadi. Masalan, “Кошка не ловит мышь” (Mushuk sichqonni tutmayapti) gapida “не” qo‘srimchasi harakatning rad etilayotganini ochiq bildiradi. Bu qoidalar orqali mantiqiy va aniq ifoda saqlangan holda inkor gaplar osongina tuziladi.



Rus tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu — gapdagi so‘z tartibini erkin o‘zgartirish imkoniyatidir. Bu esa gapda muayyan komponentni ajratib ko‘rsatishga yordam beradi. Masalan, “Мышь ловит кошку” (Sichqonni mushuk tutyapti) gapida urg‘u aynan mushukka beriladi — ya’ni bu ishni boshqa emas, aynan mushuk bajarayotgani ta’kidlanadi. Bunday erkinlik rus tilini ifodali qiladi va ma’no nozikliklarini yetkazishga imkon beradi.

Rus tilidagi ravishlar ham gapda turli joylarda bo‘lishi mumkin: ular fe’l oldida yoki gap oxirida kelishi mumkin. Masalan: “Кошка быстро ловит мышь” (Mushuk sichqonni tez tutyapti) va “Кошка ловит мышь быстро” (Mushuk sichqonni tez tutyapti). Har ikkisi ham grammatik jihatdan to‘g‘ri, ammo biri harakat tezligiga, ikkinchisi tutish jarayonining o‘ziga urg‘u beradi.

Xulosa: Ingliz va rus tillarining sintaktik tuzilmalari va so‘z tartibi o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish, tilshunoslikda muhim mavzulardan biridir. Ingliz tili analitik til bo‘lib, qat’iy SVO (subyekt–fe’l–obyekt) so‘z tartibiga ega. Bu qat’iylik, ayniqsa, gapning ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Boshqa tomondan, rus tili sintetik til bo‘lib, so‘z tartibida erkinlik mavjud. Bu erkinlik, ayniqsa, gapning urg‘usini yoki axborot tuzilmasini ifodalashda qo‘llaniladi. Bu turli tartiblar gapning ma’nosini o‘zgartirmasdan, urg‘u yoki axborotning yangi yoki ma'lumligini ifodalashda qo‘llaniladi. Ushbu maqola ingliz va rus tillarining sintaktik tuzilmalari va so‘z tartibini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Society.

<https://www.linguisticsconference.com/proceedings2020> 2. Ivanov, P. V. (2021). Word order in Russian and English: A comparative analysis. LinguisticPress



2. Wikipedia. (n.d.). *Subject–verb–object word order*.from
[https://en.wikipedia.org/wiki/Subject%E2%80%93verb%E2%80%93object
word_order](https://en.wikipedia.org/wiki/Subject%E2%80%93verb%E2%80%93object_word_order)
3. Mykhalevych, N. (n.d.). *Russian Sentence Structure: A Complete Guide*.
4. Talkpal. (n.d.). *Word Order in Russian Grammar*.
5. Rochester Institute of Technology. (n.d.). *Word Order / SEA - Supporting English Acquisition*.
6. Karamatova Janar Anuarbekovna. Word order in a sentence: comparative analysis of the syntactic structures of the Russian and english languages. Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali.